MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI

Respublika Ta'lim Markazi

# 2024-2025-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

# 11-SINF

## O'QUVCHILARI UCHUN

# O'ZBEK TILI

## FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR

TANLOV FANLAR

**2024-2025-O‘QUV YILIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 11-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O‘TKAZISH BO‘YICHA TANLOVASOSIY O‘ZBEK TILI FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI**

**Tuzuvchilar: N.Umurzoqova** Future Education xusuiy maktabining o‘zbek tili fani ustozi, o‘zbek tili va adabiyot universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

**Taqrizchi: Mamatqulova Muxayyo Ergashevna--** Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING 2025-yil 20-fevraldagi “2024/2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 65-son buyrug‘i**

O‘quvchilarning asosiy o‘zbek tili fanidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024– 2025-o‘quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o‘tkaziladi.

**I. 11-sinflarda o‘zbek tili fanidan yakuniy attestatsiya variantining tuzilishi.**

Imtihon ishining har bir varianti shakli va murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan 20 ta savoldan iborat bo‘lib, qisqa javobli, ya’ni ko‘p javobli, taqqoslama va bir javobli topshiriqlardan iborat bo‘ladi. Shulardan 3 topshiriqqa yozma javob beriladi. Bir javobli savollarga tanlash uchun variant berilmaydi. (5-jadval).

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari o‘zbek tili fani bo‘yicha umumta‘lim maktablarning o‘zbek tili fani dasturini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo‘llashga va mulohazaga oida topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Biletda o‘quvchiga 17 ta qisqa javobli, ya’ni ko‘p javobli, taqqoslama va bir javobli, 3ta yozma shaklda topshiriqlar beriladi. Bilet savollariga javob berishi uchun 150 daqiqa vaqt beriladi.

O‘quvchilarning yozma ishlari 100 ball asosida baholanadi:

0 – 29% – “qoniqarsiz”

30–65% – “qoniqarli”

66–85% – “yaxshi”

86–100% – “a’lo”

Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

1-jadval

*Sinov materiallarining qismlar bo‘yicha taqsimoti*

| **Qism** | **Topshiriqlar soni** | **Topshiriq shakli** | **Balli** | **Qism ulushi %** |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 17 | Qisqa javobli | 68 | 68% |
| 2 | 3 | Kengaytirilgan javobli | 32 | 32% |
| Jami | 20 | | 100 | 100 |

2-jadval

*Mazmun sohalari bo‘yicha topshiriqlarning taqsimoti*

| **Mazmun soha** | **Topshiriqlar soni** | **Topshiriqlarning foizi** | **Qisqa javobli balli** | **To‘liq javobli balli** | **Jami ball** |
|---|---|---|---|---|---|
| So‘z birikmasi | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Uyishiq bo‘laklar | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Matn va uning turlari | 2 | 10 | 4/8 | | 8 |
| So‘zning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari | 3 | 15 | 4/12 | | 12 |
| So‘z birikmasining bog’lanish usullari | 1 | 5 | 4 | | 4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Gap va uning turlari | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Ajratilgan bo‘laklar, undalma | 2 | 10 | 4/8 | | 8 |
| Tasviriy ifoda | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Nutq uslublari | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Kiritma bo‘laklar | 1 | 5 | 4 | | 4 |
| Ko‘chma ma’noli so‘zlar, iboralar | 2 | 10 | 4/8 | | 8 |
| Fe’l zamonlar | 1 | 5 | | 8 | 8 |
| Ko‘chirma gap | 1 | 5 | | 12 | 12 |
| O‘zlashtirma gap | 1 | 5 | | 12 | 12 |
| Jami: | 20 | 100 | 68 | 32 | 100 |

3-jadval

*Baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti*

| **Fan** | **Bilish** | **Qo'llash** | **Mulohaza** |
|---|---|---|---|
| O'zbek tili | 5 | 14 | 1 |
| Jami | 20 | | |

**B**-bilish, reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalar, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, ***yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda*** qo'llashga qaratilgan.

**Q**-qo'llash, produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, ***bir nechta qonun va qonuniyatlarni*** bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.

**M**-mulohaza, intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni ***notanish vaziyatlarda*** qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

4-jadval

*Sinov materiallari ballarining taqsimoti*

| | Qisqa javobli balli | To'liq bo'lmagan javobli balli | Mulohaza to'liq yechimli | Jami |
|---|---|---|---|---|
| O'zbek tili | 68 ball/17 ta | | 32ball/3ta | 100 |

5-jadval

*Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar*

| Topshiriq tartib raqami | Bo'lim nomi | Baholanadigan ko'nikmalar | Ko'nikma darajasi | Topshiriq shakli | Ball | Qism |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1** | So'z birikmasi | So'z birikmasi haqida ma'lumotga ega, so'z birikmasini so'z bilan taqqoslay oladi | **B** | Qisqa javobli Bir necha javob tanlanadigan 1, 2, 3 yoki A, B, C | **4** | **I** |
| **2** | Uyishiq bo'laklar | Uyishiq bo'laklar haqida ma'lumotga ega, gapda uyishiq bo'laklarni topib, moslashtira oladi | **B** | Qisqa javobli Bir necha javob tanlanadigan 1, 2, 3 yoki A, B, C | **4** | **I** |
| **3** | Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari | Gapni ifoda maqsadiga ko'ra turlarga ajratadi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlariga oid topshiriqlarni bajaradi. | **B** | Qisqa javobli Bir necha javob tanlanadigan 1, 2, 3 yoki A, B, C | **4** | **I** |
| **4** | Matn | Matn haqida ma'lumotga ega, gap va matnni farqlay oladi, mazmunan bir-biriga mos gaplar ishtirokida matn tuza oladi. | **B** | Qisqa javobli Bir necha javob tanlanadigan 1, 2, 3 yoki A, B, C | **4** | **I** |
| **5** | Matn turlari | Matnni turlarga ajrata oladi, matn turlari asosida | **B** | Qisqa javobli Bir necha javob tanlanadigan 1, 2, 3 yoki | **4** | **I** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | kifrini bayon eta oladi. | | A, B, C | | |
| **6** | So‘z birikmasining bog’lanish usullari | So‘z birikmasining bog’lanish usullarini biladi, bitishuv, moslashuv va boshqaruv usulida so‘z birikmasi hosil qiladi, so‘z birikmalari orasidan kerakli bog’lanishga oid so‘z birikmalarini ajrata oladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 \| 2 \| 3 \| 4<br>A \| B \| C \| D | **4** | **II** |
| **7** | Gap va uning turlari | Gap va uning turlari haqida ma’lumotga ega, gap turlarini farqlay oladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 \| 2 \| 3 \| 4<br>A \| B \| C \| D | **4** | **II** |
| **8** | Ajratilgan bo‘laklar | Ajratilgan bo‘laklar haqida ma’lumotga ega, gap tarkibida ajratilgan bo‘laklarni ajrata oladi | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 \| 2 \| 3 \| 4<br>A \| B \| C \| D | **4** | **I** |
| **9** | Antonim so‘zlar | Antonim so‘zlar haqida ma’lumot bera oladi, antonim so‘zlarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibidagi antonim so‘zlarni ajratadi | **Q** | Qisqa javobli<br>N \| A \| M \| U \| N \| A | **4** | **I** |
| **10** | Tasviriy ifoda | Tasviriy ifoda haqida ma’lumotga ega, tasviriy | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash | **4** | **I** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ifodalarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibidagi tasviriy ifodalarni ajratadi, tasviriy ifoda ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay oladi. | | 1 2 3 4<br>A B C D | | |
| **11** | Nutq uslublari | Nutq uslublari haqida ma’lumotga ega, matnlarni qaysi nutq uslubiga oid ekanini aniqlay oladi va nutq uslublarini taqqoslaydi | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 2 3 4<br>A B C D | **4** | **I** |
| **12** | Omonim so‘zlar | Omonim so‘zlar haqida ma’lumot bera oladi, omonim so‘zlarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibida omonim so‘zlarni erkin ajrata oladi, omonim so‘zlar ishtirok etgan mosliklarni taqqosladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 2 3 4<br>A B C D | **4** | **I** |
| **13** | Kiritma bo‘laklar | Kiritma bo‘laklar haqida ma’lumotga ega, gap tarkibida kiritma bo‘laklarni qo‘llaydi, kiritma bo‘lakli gaplar tarkibidan kiritma bo‘laklarni ajrata oladi va qiyoslaydi | **Q** | Qisqa javobli<br>N A M U N A | **4** | **I** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **14** | Sinonim so‘zlar | Sinonim so‘zlar haqida ma’lumot beradi, sinonim so‘zlarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibida sinonim so‘zlarni erkin ajratadi, sinonim so‘zlar ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay oladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 2 3 4<br>A B C D | **4** | **I** |
| **15** | Iboralar | Iboralar haqida ma’lumotga ega, iboralarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibidagi iboralarni ajratadi. Iboralar ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay oladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 2 3 4<br>A B C D | **4** | **I** |
| **16** | Undalma | Undalma haqida umumiy ma’lumotga ega, undalmalarni qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibidagi undalmalarni ajrata oladi, undalma ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay oladi. | **Q** | Qisqa javobli Moslikni aniqlash<br>1 2 3 4<br>A B C D | **4** | **I** |
| **17** | Ko‘chma ma’noli so‘zlar | Ko‘chma ma’noli so‘zlar haqida ma’lumot bera oladi, ko‘chma ma’noli so‘zlarni | **Q** | Qisqa javobli<br>N A M U N A | **4** | **I** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | qo‘llab gap tuza oladi va gap tarkibidagi ko‘chma ma’noli so‘zlarni ajratadi va qiyoslaydi | | | | |
| **2-Qism** | | | | | | |
| **18** | Fe’l zamonlari | Fe’l zamonlari haqida ma’lumotga ega, gap tarkibidagi fe’llarni zamonlarga ajrata oladi, fe’lning har uchala zamoniga oid gap tuza oladi. | **Q** | To‘liq yechimli | **8** | **II** |
| **19** | Ko‘chirma gap | Ko‘chirma gap haqida ma’lumotga ega, ko‘chirma gap qismlarini tushunadi, ko‘chirma gapli qo‘shma gap bilan o‘zlashtirma gaplarni farqlay oladi. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar tuza oladi. | **Q** | To‘liq yechimli | **12** | **II** |
| **20** | O‘zlashtirma gap | O‘zlashtirma gap haqida ma’lumotga ega, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantira oladi, gaplar orasida o‘zlashtirma gaplarni ajrata oladi, o‘zlashtirma gap va ko‘chirma | **M** | To‘liq yechimli | **12** | **II** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | gaplarni qiyosiy taqqoslay oladi. | | | | |

**1-SAVOL**

**1) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**

1. Davlat bayrog‘i
2. Vatan bilan faxrlanmoq
3. Maktab ikki qavatli
4. Mustaqil Vatan
5. Yorug‘ ko‘chalar
6. Obod mahalla
7. Ikki qavatli maktab
8. Maktab ikki qavatli
9. Vatanni sevmoq
10. Ko‘chalar yorug‘

**Javob:**1,2,4,5,6,7,9

**2) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**

1. Katta yo‘l
2. Do‘st yaxshi
3. Qizil olma
4. Kitob meniki
5. Yurgan poyezd
6. Uyda o‘tirmoq
7. Mening uyim
8. Yaxshi do‘st
9. Olma qizil
10. Yo‘l katta

**Javob:** 1,3,5,6,7,8

**3) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalari bo‘lmaganlarining tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**

1.Daftar meniki
2. Kitob qancha
3. Sharqirab oqmoq
4. Biz keldik
5. So‘zga chiqdi
6. Biz ishqildik
7. Mening daftarim

8. Maktabdan kelmoq
9. Ovozi kuchli
10. So‘zga chiqmoq
**Javob:** 1,2,4,5,6,9

**4)Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini. (Bilish)**
1. Ignaning ko‘zi
2. kitobni o‘qimoq
3. Oydin kecha
4. Kitob yangi
**Javob:** 1,2,3

**5) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**
1. Olma qizil
2. Shaharga bormoq
3. Mening qalamim
4. Kitob yangi
**Javob:** 2,3

**6) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalari bo‘lmaganlarining tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**
1. Kitob yangi
2. Chiroyli gapirmoq
3.Shahar obodonlashtirilgan
4. Ular gapir dilar
**Javob:**1,2,3

**7) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini tartib raqamlarini yozing.(Bilish)**
1. Katta yo‘l
2.Shamol esyapti
3. Tor so‘qmoqlar
4. Tez gapirmoq
**Javob:** 1,2,3

**8) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalarini tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**
1. Yaxshi do‘st
2.  Poyezd yurdi
3. Qizil qalam

4. Mening kitobim
5. Ko‘ylak oq
6. Maktabga bormoq
7. Sinfimiz keng va yorug‘
8. Do‘stim yaxshi
9. Do‘stlarni hurmat qilmoq
10. Kitobning muqovasi

**Javob:**1,3,4,6,9,10

**9) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalari bo‘lmaganlarining tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**

1. So‘zga chiqmoq
2. Mening daftarim
3. Eshik ochiq
4. Keng vodiylar
5. Baland tog‘lar
6. Biz ish qildik
7. Sodda kishilar
8. Uydan chiqmoq
9. Bu ko‘chalar bizniki
10. Soat oltin

**Javob:** 1,3,6,9,10

**10) Quyidagilar orasidan so‘z birikmalari bo‘lmaganlarining tartib raqamlarini yozing. (Bilish)**

1. O‘z-o‘zidan gapirmoq
2. Daftarlar sakkizta
3. Yo‘l chang
4. Yam-yashil o‘tloq
5. Yaxshi so‘zlamoq
6. Bola kuldi
7. Tovushdan tez
8. Sizning uyingiz
9. Uya buzildi
10. Ular kuyladilar

**Javob:** 2,3,6,9,10

**2-SAVOL**

**1) Ushbu gapda qaysi bo‘lak uyushib kelgan? (Bilish)**

Maktabga kelayotib yo‘lda Salim, Aziz va Erkinni ko‘rib qoldim.

1.Ega 2. Kesim 3.Aniqlovchi 4. To‘ldiruvchi 5. Hol

**Javob:**4

**2)Quyidagi javoblardan qaysi birida ega uyushib kelgan? (Bilish)**

1. Karomat, Madina va Sayyora bugun maktabga kelmadilar.
2. Ukamning daftarlari shkaf va stol ustida yoyilib yotibdi.
3. Bozordan olma, anor, behi va nok oldim.
4. Bu o‘quvchilar orasida Otabek va Abdulloh IT sohasini biladi.
5. Meva va sabzavotlar foydali ekanini bilib ham yeyishni istamaydi.

**Javob:** 1,3,4

**3) Quyidagi gaplarning qaysi birida uyushiq bo‘laklar ishtirok etmagan? (Bilish)**

1. Non mahsulotlari alohida do‘konlarda sotiladi va bu do‘konlar har doim gavjum.
2. Menga o‘qituvchi, tikuvchi, sotuvchi kabi bir qator kasblarni taklif qilishdi.
3. Uyning eshik va derazalari ochiq edi.
4. Na maktabga borasan, na uyda qolib bir ishni uddalaysan.
5. Boburning «Boburnoma» asari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan.
6. Uning so‘z boyligi ko‘p va o‘zbek tilida erkin gaplashadi.
7. Biologiya, kimyo, matematika kabi fanlarni chuqur o‘zlashtiryapman.
8. Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari orqali o‘zbek tilining go‘zalligini, boyligini va qudratini olamga namoyish etdi.
9. «Devoni lug‘atit turk» asarida Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, ta’lim-tarbiya, urf-odatlari, rasm-rusumlarining izohi keltirilgan.
10. Halima Xudoyberdiyeva o‘zining «Muqaddas ayol» nomli she’riy to‘plami uchun Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

**Javob:** 1,4,5,6,10

**4) Ushbu gapda qaysi bo‘lak uyushib kelgan? (Bilish)**

Insonlar ongida ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e’zozlash ustuvor bo’lgan.

1. Hol 2.Aniqlovchi 3. Kesim 4. To‘ldiruvchi 5. Ega

**Javob:** 4

**5) Quyidagi javoblardan qaysi birida kesim uyushib kelgan? (Bilish)**

1. Karomat, Madina va Sayyora sinfimiz qizlari orasida eng aqlli, odobli va chiroyli qizlardir.
2. Men uzoq yillardan beri shu shahar dayashab, o‘qib, ishlab kelyapman.

3. Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo’lamiz.
4. Daraxtlar tagiga to‘kilgan sariq, qizgil, olovrang burglar kuzkelganidan darak berar edi.
5. Siz a’lochi va jamoatchisiz
**Javob:** 2,3,5

**6) Ushbu gapda qaysi bo‘lak uyushib kelgan? (Bilish)**
Uyimizga mehmon bo‘lib kelgan bobom va buvim olisdan kelganliklari bois juda charchagan edilar.
1. To‘ldiruvchi 2. Kesim 3. Hol 4. Ega
5. Aniqlovchi
**Javob:** 4

**7) Quyidagi javoblardan qaysi birida hol uyushib kelgan? (Bilish)**
1. Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni erkalar edi.
2. Mehmonlarni yaxshiroq kutish uchun bog‘ga dasturxon tuzatib, atrofga suv sepib, supurib qo‘yishgan edi.
3. U dam hazil bilan, dam jiddiy so’rar edi.
4. Biz dam olish kuni, erta tongdan sayohatga ketishni reja qildik.
5. Shahar ko‘chalarida, bog‘larda, qir-u adirlarda bahor nafasi ufuradi.
**Javob:** 1,3,4,5

**8)Quyidagi gaplarning qaysi birida uyushiq bo‘laklar ishtirok etmagan?(Bilish)**
1.Baland tog‘lar, keng vodiylar, mevalari g‘arq pishgan bog‘lar yurtim ko‘rkiga ko‘rk qo‘shadi.
2. Farida opa xontaxtaga yangi dasturxon yozdi va noz-ne’matlarni o‘rtaga qo‘ydi.
3. Ustoz biroz sukut saqlab, so‘ngra yana davom etdi.
4. Onasiga, Vataniga bo‘lgan mehrini sezdi.
5. Shu o‘rinda olis zamonlarda o‘tgan ajdodimiz Shiroqning Vatan yo‘lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushdi.
6. Uch yoshga kirganda bulutga sakraydigan, tuyog‘idan o‘t chaqnaydigan ot bo‘ldi.
7.Olamda qanoat kabi dilni poklaydigan narsa yo‘qdir.
8. Cho‘l burgutini izlab Oltiariqdan Yozyovonga otda jo‘nadim.
9. Yaxshidan ot qoladi, yomondan-dod.
10. Ingliz dramaturgi va shoiri Vilyam Shekspir o‘z faoliyatini 1580-yilda boshlagan.
**Javob:** 2,3,5,7,8,9

**9) Ushbu gapda qaysi bo‘lak uyushib kelgan?(Bilish)**

Markaziy Osiyo qadimdan alp, bahodir yigitlar yurti sifatida dovrug‘ taratgan.

1. Hol 2. Aniqlovchi 3. Kesim 4. To‘ldiruvchi 5. Ega

**Javob:** 2

**10) Quyidagi javoblardan qaysi birida aniqlovchi uyushib kelgan?(Bilish)**

1. Yosh, o‘rta bo‘yli, kelishgan yigit so‘zga chiqdi.
2. Qalin muqovali, biroz eskirgan, ammo juda qimmatbaho kitoblar javonda turibdi.
3. Universitetda yuqori darajali darslar tashkil qilinyapti.
4. Keng, yorug‘ va nurafshon ko‘chalar shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shmoqda.
5. Chaqaloq kichkina, dumaloq va oppoq qo‘llarini cho‘zib menga talpinar edi.

**Javob:** 1,2,4,5

**3-SAVOL**

**1) Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang. (Bilish)**

1. Darak gap
2. Sodda gap
3. So‘roq gap
4. Qo‘shma gap
5. Buyruq gap
6. Ergash gap
7. Uyushiq bo‘lakli gap
8. Istak gap
9. Undov gap
10. Kiritma gap

**Javob:**1,3,5,8

**2) Ushbu gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turiga kiradi? (Bilish)**

Bir-biri bilan mazmunan bog‘langan gaplar matn deyiladi.

1. So‘roq gap. 2. Buyruq-istak gap 3. Undov gap 4. Darak gap

5. Ushbu gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarining birortasiga ham kirmaydi.

**Javob:** 4

**3) Qaysi javobda so‘roq gaplar berilgan? (Bilish)**

1. Kecha teatrga bordingmi?
2. Bizning o‘quvchilar a’lochi va odobli.
3. Bu kitobni o‘qisangchi.
4. Bu tarixiy voqeani kim so‘zlab berdi?
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o‘qishga kirmoqchiman.
6. Usta Shirin me’moriy obidalarni ganchkorlik naqshlari bilan bezadi.
7. Durdona, sen o‘z kasbiga sadoqatli, fidoyi insonlarni bilasanmi?
8. A’lo baholarga o‘qib yuribsanmi?!
9. Sahna ko‘rinishida ishtirok etgan bolalar-chi?!
10. Cho‘lpon madrasa, rus-tuzem maktabida tahsil olgan.

**Javob:**1,4,7,8

**4) Ushbu gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turiga kiradi? (Bilish)**

Hozir yaxshi o‘qisang, kelajakda barcha orzularingga erishish imkoniga ega bo‘lasan.

1. Buyruq gap 2. Undov gap 3. Darak gap 4. So‘roq gap. 5. Istak gap.

**Javob:** 5

**5) Qaysi javobda darak gaplar berilgan? (Bilish)**

1. Kecha teatrga bordingmi?
2. Bizning o‘quvchilar a’lochi va odobli.
3. Bu kitobni o‘qisang-chi?!
4. Bu tarixiy voqeani kim so‘zlab berdi?
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o‘qishga kirmoqchiman.
6. Usta Shirin me’moriy obidalarni ganchkorlik naqshlari bilan bezadi.
7. Durdona, sen o‘z kasbiga sadoqatli, fidoyi insonlarni bilasanmi?
8. Bizga sport maydoni qurib berishdi.
9. Sahna ko‘rinishida ishtirok etgan bolalar-chi?
10. Cho‘lpon madrasa va rus-tuzem maktabida tahsil olgan.

**Javob:** 2,5,6,8,10

**6) Ushbu gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turiga kiradi? (Bilish)**

Barcha ishlaringni qilib bo‘lgach tezda uyga qaytib kel.

1. Buyruq gap. 2. So‘roq gap 3. Darak gap 4. Undov gap 5.Istak gap.

**Javob:** 1

**7) Qaysi javobda darak gaplar berilgan? (Bilish)**

1. Cho‘lpon madrasa va rus-tuzem maktabida tahsil olgan.
2. Temuriylar va Boburiylar sulolalari vakillaridan kimlarni bilasiz?
3. Asosiy maqsadimiz-yosh avlodni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash.
4. Barcha takliflarni o‘rganib chiqing.
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o‘qishga kirmoqchiman.
6. Erta tongda barvaqt tursang, barcha ishlaringga ulgurasan.
7. Har bir ishda ehtiyotkorlik va ziyraklikni qo‘ldan bermaslik kerak.
8. A’lo baholarga o‘qib yuribsanmi?
9. Sahna ko‘rinishida ishtirok etgan bolalar bizning eng iqtidorli o‘quvchilarimizdan.

10. Yurtimiz mustaqillik yillarida ko‘plab sohalarda yutuqlarga erishib kelmqda.

**Javob:** 1,3,5,7,9,10

**8) Qaysi javobda darak gaplar berilgan? (Bilish)**

1. Cho‘lpon madrasa at us-tuzem maktabida tahsil olgan.
2. Temuriylar va Boburiylar sulolalari vakillaridan kimlarni bilasiz?
3. Asosiy maqsadimiz-yosh avlodni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash.
4. Barcha takliflarni o‘rganib chiqing.
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o‘qishga kirmoqchiman.

6. Erta tongda barvaqt tursang, barcha ishlaringga ulgurasan.
7. Harbirishdaehtiyotkorlikvaziyraklikniqo‘ldan bermaslik kerak.
8. A’lo baholarga o‘qib yuribsanmi?
9. Sahna ko‘rinishida ishtirok etgan bolalar bizning eng iqtidorli o‘quvchilarimizdan.

10. Yurtimiz mustaqillik yillarida ko‘plab sohalarda yutuqlarga erishib kelmqda.
**Javob:** 1,3,5,7,9,10

**9) Qaysi javobda his-hayajon bilan aytilgan istak gaplar berilgan? (Bilish)**
1. Ilm o‘rganishda beparvolik qilmasang, barcha orzularingga yetasan!
2. Temuriylar va Boburiylar sulolalari vakillaridan kimlarni bilasiz?
3. Asosiy maqsadimiz-yosh avlodni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash ekanini bilsang edi!
4. Barcha takliflarni o‘rganib chiqdim.
5. Ey, ona Vatan, go‘zallik bobida beqiyosdirsan!
6. Erta tongda barvaqt tursang, barcha ishlaringga ulgurasan!
7. Har bir ishda ehtiyotkorlik va ziyraklikni qo‘ldan bermaslik kerak.
8. A’lo baholarga o‘qib yurgan bo‘lsang kerak?!
9. Sahna ko‘rinishida ishtirok etgan bolalar sizning eng iqtidorli o‘quvchilaringiz bo‘lsa kerak?!
10. Yurtimiz mustaqillik yillarida ko‘plab sohalarda yutuqlarga erishib kelmoqda!
**Javob:** 1,3,6

**10)Ushbu gap gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turiga kiradi? (Bilish)**
Nahotki, barcha do‘stlarimiz bir yerda jam bo‘lsalar?!
1. Buyruq gap. 2. So‘roq gap 3. Darak gap 4. Undov gap
5.Istak gap.
**Javob:** 5

**4-SAVOL**

**1) Matn qanday qismlardan tashkil topadi? (Bilish)**

1. Mazmun birligi 2. Gaplar yig'indisi 3. Xulosa 4. Asosiy qism

**Javob:** 3,4

**2) Ushbu qisqa matnlardan qaysi biri dialog matn? (Bilish)**

1.Ko'p kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Shu bois ham dam olish kunlari kitob do'koniga borishni yoqtiraman.

2. -Salim bugun maktabga keldimi?

-Yo'q, negadir kelmadi.

3. Yurt himoyasi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk bobolarimizning jasorati bizlar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi. Vatanga bo'lgan mehr va sadoqatimizni yanada oshiradi.

4. -Cho'l burgutini ko'rgani kelyapman.

-Ha! Ko'rsa arziydigan yigit.

**Javob:** 2,4

**3) Quyidagi fikrlardan qaysi biri dialog matnga xos? (Bilish)**

1. Gap boshiga tire qo'yilmaydi
2. Bir kishining nutqi
3. Ikki kishining suhbati
4. Asosan savol-javob tarzida bo'ladi.
5. Fikrlar o'zaro mazmunan bog'lanadi.
6. Har bir gap yangi satrdan boshlanadi
7. Yangi gap kelgan joyidan katta harf bilan boshlanadi.
8. So'zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayonidir.
9. Fikrlar vergul bilan ajratilgan holda davom ettiriladi.
10. Faqat hissiyotni ifodalaydi

**Javob:**3,4,5,6,8

**4) Qaysi javobda matn qismlari to'g'ri berilgan?**

1. Xatboshi, asosiy qism, xulosa 2. Asosiy qism, kirish, xulosa
3. Asosiy qism, xulosa 4. Xulosa, kirish

**Javob:** 2

**5) Ushbu matn qanday matn? (Bilish)**
-Dildora, sen o‘z kasbiga sadoqatli, fidoyi insonlarni bilasanmi?
-Ha bilaman.
-Kimni ayta olasan?
-O‘zbek tili o‘qituvchimiz Dilbar Qosimxo‘jayevani aytsam bo‘ladi.
1. Monolog matn 2. Katta matn 3. Asosiy matn 4. Dialog matn
**Javob:** 4

**6) Matnning qo‘llanilishiga ko‘ra turlari berilganjavobni belgilang. (Bilish)**
1. Monolog matn, dialogmatn
2. Katta matn, dialogmatn
3. Dialogmatn ,asosiymatn
4. Monolog matn , kichikmatn.

**Javob:** 1

**7) Matnning asosiy qismida nimalar ifoda etilishi zarur? (Bilish)**
1.Asosiy fikr 2. Gaplar yig‘indisi 3. Xulosa 4. Xulosalovchi fikr
**Javob:** 1

**8) Ushbu gaplar qaysi turdagi matnlarning qismlari? (Bilish)**
1.Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiyadir.
2. O‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam kasallikdan yiroq bo‘ladi
3. Badantarbiya tanaga yengillik beradi.

1. Kichik matn 2. Katta matn 3. Dialog matn 4. Monolog matn

**Javob:** 4

**9) Matnga sarlavha qanday tanlanadi?(Bilish)**
1.Matngadi gaplar soniga qarab
2. Matn mazmuniga qarab
3. Xulosalovchi fikr bor yo‘qligiga qarab.
4. Asosiy qismda berilgan gaplar mazmunan bog‘langanligiga qarab
**Javob:** 2

**10) Ushbu qisqa matnlardan qaysi biri dialog matn? (Bilish)**

1. -Ustoz, naqsh degani nima?
-«Naqsh» arabcha so‘z bo‘lib, tasvir, gul, ma’nolarini anglatadi.
-Naqshlar qanday turlarga bo‘linadi?
-Naqshlar mazmuniga ko‘ra o‘simliksimon, geometrik naqshlar, gulli, guruh, ramziy va boshqa turlarga bo‘linadi.
2. -Hormanglar! -Dedi rais ishchilarga qarab.
-Bor bo‘ling !
-Qalay, charchamayapsizlarmi?
-Hosil mo‘l bo‘lsa, hech kim charchamaydi.
3. Ravshan Ermatov 1977-yilda Toshkentda dunyoga kelgan. U FIFA tomonidan 2003-yil xalqaro hakamlikka tayinlangan. Ravshan Ermatov 2008, 2009, 2010 va 2011-yillarda futbol bo‘yicha «Osiyoning eng yaxshi hakami» deb tan olingan.
4. Jadidlar taraqqiyotning yagona kaliti ilm-ma’rifat ekanligini anglab, yangicha usuldagi bepul ta’lim beradigan maktablar ochdilar. Ushbu maktablar uchun darsliklar yozib, millat farzandlarini savodli qilish uchun o‘z hisoblaridan mablag‘larini sarfladilar.

**Javob:** 1,2

**5-SAVOL**

**1) Kelishik qo‘shimchalari qanday qo‘shimchalar hisoblanadi? (Bilish)**

1. Ismlarga qo‘shilib asos va qismdan anglashilgan belgining uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildiradi.
2. Ismlarga qo‘shilib ko‘plik ma’nosini bildiradi.
3. Ismlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘laydi.
4. Ismlarni boshqa so‘zlarga teng munosabatda bog‘laydi.

**Javob:** 3

**2)O‘zbek tilida nechta kelishik shakllari bor? (Bilish)**

1. Uchta
2. Oltita
3. To‘rtta
4. Yettita

**Javob:** 2

**3) Bosh kelishikda berilgan so‘zlarining tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1. Kitobga, toqqa, elakka.
2. Bog‘, kutubxona, karvon.
3. Maktabining, ukamning, hikoyaning.
4. Uydan, sayohatdan, ulardan.

**Javob:** 2

**4)Qaratqich kelishi kerak so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1. Kitobga, toqqa, elakka.
2. Bog‘, kutubxona, karvon.
3. Maktabining, ukamning, hikoyaning.
4. Uydan, sayohatdan, ulardan.

**Javob:** 3

**5) Tushum kelishigidagi so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1.Kitobga, toqqa, elakka.
2.Uyda, sayohatda, bizda.
3.Sinf, tog‘i, kitob.
4.Bahorni, akamni, darsni.

**Javob:** 4

**6)Jo‘nalish kelishigadagi so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1. Kitobga, toqqa, elakka.
2. Bog‘, kutubxona, karvon.
3. Maktabining, ukamning, hikoyaning.
4. Uydan, sayohatdan, ulardan.

**Javob:** 1

**7) O‘rin-payt kelishigidagi so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1. Toshkentdan, tongdan, unutganidan.
2. Dunyoda, tongda, senda.
3. Uyga, yo‘lga, radioga.
4. Daftar, kelajak, fazogir.

**Javob:** 2

**8) Chiqish kelishigidagi so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1.Toshkentdan, tongdan, unutganidan.
2.Dunyoda, tongda, senda.
3.Uyga, yo‘lga, radioga.
4.Daftar, kelajak, fazogir.

**Javob:** 1

**9) O‘zbek tilida qaysi kelishik shaklining qo‘shimchasi yo‘q? (Bilish)**

1. Qaratqich kelishigining qo‘shimchasi yo‘q.
2. Bosh kelishigining qo‘shimchasi yo‘q.
3. Dushman kelishigining qo‘shimchasi yo‘q.
4. Jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasi yo‘q.

**Javobi:** 2

**10)Jo‘nalish kelishiga qo‘shimchalari berilgan javoblarning tartib raqamini yozing. (Bilish)**

1. -ga
2. -da
3. -ka
4. -qa

**Javob:** 1,3,4

**6-SAVOL**

**1) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1.Davlat bayrog‘i, ukamning daftari, o‘z fikrim, o‘quvchilarning qimmatli vaqti

2.Dong taratmoq, kuch sarflamoq, katta yo‘l, qizil olma.

3. G‘azab bilan gapirmoq, mashinada bormoq, maktabdan qaytmoq, ertakka ishonmoq.

4.Go‘zal qiz, katta kitob, hashamatli uy, nafis gul

A. Moslashuv B. Boshqaruv C. Bitishuv va boshqaruv D. Bitishuv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**2) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1.Davlat bayrog‘i, ukamning daftari, qishloqqa bormoq, salomatlikka e’tibor bermoq.

2.Nurillohning g‘oyasi, mashinaning eshigi, olmaning danagi, kitob sahifalari.

3. Mashinada bormoq, maktabdan qaytmoq, ertakka ishonmoq.

4.Aqlli fikr, odobli bola, a’lochi o‘quvchi, ma’noli gap

A. Moslashuv B. Boshqaruv C. Moslashuv va boshqaruv D. Bitishuv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**3) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Komilaning daftari, do‘konning rastasi, yurtning bayrog‘i, yo‘l qoidasi.

2.Ko‘m-ko‘k osmon, topshiriqni bajarmoq, oppoq paxta, yuzaga chiqmoq.

3. Safarga chiqmoq, vaziyatga qaramoq, rasmni chizmoq, she’rni yod olmoq.

4. Sharafli burch, qancha savol, sharqirab oqmoq, tez o‘qimoq.

A. Boshqaruv B. Bitishuv C.Moslashuv D. Bitishuv va boshqaruv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**4) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Davlatni barpo etmoq, maqsadga erishmoq, chiroqqa qaramoq.

2.Kamtar bo‘lmoq, ko‘p gapirmoq, kerakli buyumlar, birinchi o‘quvchi .

3. Shifoxonaning binosi, tashqi muhit, fikrning ko‘lami, tez gapirmoq.

4. Opamning sinfdoshi, eshikning tutqichi, mening fikrim, sizning maqsadingiz

A. Boshqaruv B. Bitishuv C. Moslashuv D. Bitishuv va moslashuv

**Javob:**

| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

**5) Quyidagi so‘z birikmalarni  bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Maktabning derazasi, davlat bayrog‘i, ukamning daftari,o‘quvchilarning qimmatli vaqti.
2. Farovon hayot, o‘sha kitob, tez o‘qish, tarbiyaviy soat.
3. Betashvish damlar, chaqqon qiz, chiroyli manzara, toqqa chiqmoq.
4. Chiroqqa qaramoq, do‘stini chaqirmoq, sabrni sinamoq, daraxtni ekmoq.

A.Boshqaruv va bitishuv B. Moslashuv C.Bitishuv D. Boshqaruv

**Javob:**

| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

**6) Quyidagi so‘zbirikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Buyruqni bajarmoq, topishmoqni aytmoq, mehmonga bormoq, xabarni o‘qimoq.
2. Yozgan asari, mehribon murabbiy, yaratgan ixtirosi, eski shahar.
3. Ismoilning kitobi, masalaning yechimi, onamning so‘zlari, odamning mehnati.
4. Chiroyli gapirmoq, tez yurmoq, natijani olmoq, maktabga bormoq

A. Bitishuv B. Moslashuv C.Bitishuv va boshqaruv D. Boshqaruv

**Javob:**

| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

**7) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Qizil lola, zimdan kuzatmoq, harbiylarcha salomlashmoq, beshta daftar.
2. Kiyikning shoxi, farzandning burchi, tozalikning foydasi, sarguzashtning zavqi.
3. Ahillikka chorlamoq, tozalikni saqlamoq, suvda suzmoq, hunarni egallamoq.
4. Kitobsevar o‘quvchi, oq bulut, maktabga kelmoq, yo‘ldan o‘tmoq.

A. Boshqaruv B. Bitishuv C.Moslashuv D. Bitishuv va boshqaruv

**Javob:**

| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|

**8) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Onaning mehri, do‘stning maslahati, jamoaning manfaati, mehnatning rohati, ukamning qarori
2. Odil podishoh, porloq yulduz, qiziqarli kitob, oqar daryo.
3. Qo‘shiqni kuylamoq, gulzorga kirmoq, masalani yechmoq, vaziyatni baholamoq.

4. Kimyo fani, oq kabutar, mamlakatning dono qiroli, kitobning sahifasi
A.Boshqaruvva moslashuv B. Bitishuv C.Moslashuv D. Boshqaruv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**9) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**
1. Qog‘ozga yozmoq, xatni o‘qimoq, kompyuterda yozmoq, sayohatga chiqmoq.
2. Quyoshning nuri, darsning mavzusi, o‘tkir fikr, yangi g‘oya.
3. Dono bola, noqulay vaziyat, qadimiy kitob, yoqimli musiqa.
4. Samalyotning qanoti, bizning yangi uyimiz, qushning qanoti, quyonning qulog‘i.

A. Moslashuv B. Boshqaruv C.Moslashuv va bitishuv D. Bitishuv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**10) Quyidagi so‘z birikmalarini bog‘lanish usuli bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**
1. Oqila malika, qadimiy rivoyat, tarixiy asar, ajoyib sovg‘a.
2. O‘zbekistonning hududi, bizning madaniyatimiz, sinfdoshimning fikri, kitobning varaqlari.
3. Vaziyatni baholamoq, mehmonni kutmoq, bilimni mustahkamlash, gulni ekmoq.
4. Kattalardan so‘ramoq, hushbo‘y ifor, yorug‘ xona.

A. Moslashuv B. Boshqaruv va bitishuv C.Boshqaruv D. Bitishuv

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**7-SAVOL**

**1) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1. Men ertaga bobomni ko‘rgani qishloqqa boraman.
2. «Xamsa» Alisher Navoiyning shoh asari bo‘lib, besh dostondan iborat.
3. Malika bu kitobni o‘qidi, mazmunini singlisiga so‘zlab berdi.
4. Goh yomg‘ir yog‘adi, goh quyosh nur sochadi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**2) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.(Qo‘llash)**

1. Bahor kelsa tabiat uyg‘onadi, shuning uchun bahor ifori o‘zgacha.
2. Kim kelajak uchun yaxshi o‘qish kerakekanligini bilmaydi deysiz?
3. Barcha kitoblarni tartib bilan javonga joylab qo‘ydim, daftarlaring ham o‘sha yerga qo‘yilgan.
4. Bo‘ldi, bas qil deyapman senga, lekin gapga kirmasang nima qilay?

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**3) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating. (Qo‘llash)**

1. Xonani tartib bilan yig‘ishtir va qayerga nima qo‘yganingni eslab qol.
2. Durdona samiymiy tilaklar bildirdi, qo‘lidagi sovg‘ani dugonasiga berdi.
3. Barcha o‘quvchilaringiz tirishqoq ekan-a?
4. Men bo‘sh vaqtimda juda ko‘p kitob o‘qiyman.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**4) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1.Na o‘zini hurmat qiladi, na do‘stlarini.
2. Eshikdan shoshilib chiqdi, ammo nimalarnidir o‘ylab to‘xtab qoldi.
3. G‘oliblar taqdirlandi.

4. Kitoblar turgan javon yonida turgan onasining rasmiga qo‘l uzatdi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**5) Quyidagi gaplarni tuzilishga ko'ra turlarga ajrating.(Qo‘llash)**

1. Qor yog‘di-don yog‘di.
2. Bahor keldi.
3. Hosil to‘kin bo‘lsa, to‘ylar to‘xtamas.
4. Yakshanba kuni sinfdosh do‘stlarim bilan uchrashdim.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**6) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1. Masala oydinlashdi.
2. Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbayi.
3. Barcha kitoblarni tartib bilan javonga joylab qo‘ydim.
4. Kechasi qalin qor yog‘di, lekin havo sovimadi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**7) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1. Men ertaga bobomni ko‘rgani qishloqqa borib, shu kuni shaharga qaytaman.
2. Nega aytilgan ish o‘z vaqtida bajarilmadi?
3. Zudlik bilan bu  topshiriqni bajar va natijasini menga ayt.
4. Eshik sekin ochildi-yu, Qalandarovning yuzi ko‘rindi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**8) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1. Hamma yig‘ilgach, majlis boshlandi.
2. Ertaga men bilan birga borasan.
3. Barcha kitoblarni tartib bilan javonga joylab qo‘ydim, qolgan ishlarga yordam berib yuborishing kerak.
4. Bahorda tabiat uyg‘onadi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**9) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1. Kuzni yoqtiraman.
2. Bu yil qish sovuq kelmadi.
3. Arava g‘ichirlab borar, aravakash xirgoyasini bir zumga to‘xtatmas edi.
4. O‘qituvchi qo‘ng‘iroq chalgach, sinfga kirdi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**10) Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating.( Qo‘llash)**

1.Rais kelib, yangi xabarni aytdi.

2.O‘quvchilar saralandi.

3. Tig‘ yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas.

4. Tevarak-atrofga qorong‘u tusha boshladi.

**Javob:**

| Sodda gap | Qo‘shma gap |
|---|---|
| | |

**8-SAVOL**

**1) Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1. Boyagi yigitning, Avazning, qo‘li gul ekan.
2. Bizlarga, ya’ni yoshlarga barcha sharoitlar yaratilyapti.
3. Men, Akmal, hozir 11-sinfda o‘qiyman.
4. Ularni, yangi jamoa a’zolarini, boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi.

A. Bizlar B. Ular C. Boyagi yigit D. Men

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**2) Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1. Ziyraklikni yo‘qotgan kishi, **Alavuddin**, aldani bqoldi.
2. Bir hafta davomida, ya’ni **shu hafta**, biz final musobaqalariga tayyorlanamiz.
3. Bizning sardor, **Sanjarga**, akasining fikri yoqdi.
4. Tibbiyot faninig asoschisi, **Abu Ali ibn Sino**, bizning buyuk bobokalonimizdir.

A. Tibbiyot fanining asoschisi B. Bizning sardor C. Bir hafta davomida
D. Ziyraklikni yo‘qotgan kishi

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**3) Qaysi so‘zlar o‘zaro antonym bo‘la oladi? (Qo‘llash)**

1.Og‘ir 2. Tun 3. Kel 4. Uzun
A.Yengil B. Kelma C. Kun D. Qisqa

**Javob:** 1A; 2C; 3B; 4D

**4) Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1. Afsonaviy qush, **semurg‘** haqidagi ertak menga yoqadi.
2. O‘sha yigit, **cho‘l burguti**, bu yerlarni o‘zi obod qilgan.

3. «Yulduzlar mangu yonadi» asarining muallifi, ya’ni **Tog‘ay Murod** 55 yoshda vafot etgan.
4. Mashhur qadimiy savdo yo‘li, **Buyuk ipak yo‘li**, O‘zbekiston hududidan o‘tgan.
A. Afsonaviy qush B. O‘sha yigit C.«Yulduzlar mangu yonadi» asarining muallifi D. Mashhur qadimiy savdo yo‘l

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**5) Quyidagicha gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring.(Qo‘llash)**

1. Oybek akaning rafiqasi, ya’ni **Zarifa opa** juda matonatli ayol edi.
2. «Qutadg‘u bilig» asarning muallifi, **Yusuf Xos Hojib**, savdogarlarni xalq hayotini rivojlantiradi degan.
3. Fasllar kelinchagi, ya’ni **bahor** kelgani bois daraxtlar bezandi.
4. Katta va qadimiy savdo yo‘li, ya’ni **Buyuk ipak yo‘li** Sharq va G‘arb mamlakatlari xalqlarining o‘zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo‘lish imkonini berdi.

A. «Qutadg‘u bilig» asarning muallifi B. Katta va qadimiy savdo yo‘li
C. Fasllar kelinchagi D. Oybek akaning rafiqasi

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**6)Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1. Jadidlar, **Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriylar**,o‘z xalqini ilm sari chorladi.
2. Eng ulug‘ zotga, **onaga**, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi.
3. «Cho‘l bo‘risi» asar muallifi, **Herman Hessening** eng mashhur asarlaridan biri.
4. Yurt savdogarlari, ya’ni **tadbirkorlar** iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo‘shmoqdalar.
A. Yurt savdogarlari B.Asar muallifi C. Eng ulug‘ zot D. Jadidlar

**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**7) Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1. Kelajak bunyodkorlari, **yoshlar**, bor imkoniyatlarini sarflab bilim olmoqdalar.
2. Vityani asrab olgan otasi, **Mahkam aka**, asli temirchi edi.
3. «Qizimga» she’rining muallifi, ya’ni **Saida Zunnunova** 51 yil umr ko‘rgan.
4. O‘zbek teatri yulduzi, **Razzoq Hamrayev**, yuzdan ortiq asarda rol ijro etgan.

A. «Qizimga» she’rining muallifi B. Vityani asrab olgan otasi
C.O‘zbek teatri yulduzi D. Kelajak bunyodkorlari
**Javob:**

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 2 | | 3 | | 4 | |

**8) Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratilgan bo‘lakni o‘zi izohlayotgan bo‘lak bilan moslashtiring. (Qo‘llash)**

1.Vilyam Shekspir asarining bosh qahramoni,**Hamlet**,Abror Hidoyatov tomonidan yorqin ijro etilgan.
2. 1937-yilda Toshkent shahrida amaliy san’at,**hunarmandchilik**, muzeyi tashkil etilgan.
8. Ariq labida o‘sgan yalpizlarni terib, yalpiz somsa qildik.
9. Alla aytay, oltin qo‘zim, uxlab qolgin alla.
10. Serg‘ayrat bolalarning ko‘zlari yonib turar edi.

**Javob:** ___________

**10) Quyidagi gaplardan qaysi birida so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llangan? (Qo‘llash)**

1. Otabek bu gaplardan xabardor bo‘lgach Homidning qanotini qayirib qo‘yishga qaror qildi.
2. Oltin boshingiz omon bo‘lsin, Onajon.
3. O‘zbek xalqi bolalarini oppoq bolam, shirin bolam deb erkalaydi
4. Yurtimizda barcha millat vakillari teng huquqli.
5. Kuz faslida dalalarni oq oltin bezaydi.
6. Bu libos juda bejirim bo‘lib, sizga juda yarashibdi.
7. Erta ekkan xirmon qilur, kech ekkan armon qilur.
8. Tejamkorlikning boshi mayda xarajatlardan boshlanadi.
9. Siz bir kunda qancha suv sarflanishini o‘ylab ko‘rganmisiz?
10. Boshim og‘riyotgani uchun bugun kinoga borolmadim.

**Javob:**__________

**18-SAVOL**

**1) Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo'llash)**

Bahodir va Sardor maktabga birga kelishdi.

**Javob:**______________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

**2) Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo'llash)**

Darsdan keyin yo to'garakka, yo kutibxonaga boraman.

**Javob:**______________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

**3) Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing.(Qo'llash)**

Musobaqada 11-sinf o'quvchilari ham ishtirok etishadi.

**Javob:**______________________________________________________________

_______________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

**4)Berilgan gapkesimining (fe’l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo‘llash)**

Sog‘lom, tetikvaishchanbo‘lishgaharakat qilyapman.

**Javob:**______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

**5)Berilgan gap kesimining (fe’l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing.(Qo‘llash)**

Yig‘ilishga barcha o‘z vaqtida yetib keldi.

**Javob:**______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

**6)Berilgan gap kesimining (fe’l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo‘llash)**

Maktabimizdagi “Yosh texniklar” to‘garagi faoliyatini yurityapman.

**Javob:**______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

**7) Berilgan gap kesimining (fe’l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Ravshan Ermatov FIFA tomonidan 2003- yil xalqaro hakamlikka tayinlandi.

**Javob:**______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

________________________________________________________________________
____________________________________________________________

**8) Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo'llash)**

«Nop world» xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra dunyoda odamlar haftasiga 16.6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflayapti.

**Javob:**______________________________________________________________

__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
________________________________________________________________________
____________________________________________________________

**9)Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo'llash)**

Labihovuz ansambli, Sitoray Mohi Xossa kabi me'moriy majmualarga ko'p sayyohlar kelmoqda.

**Javob:**______________________________________________________________

__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________

**10)Berilgan gap kesimining (fe'l) zamonini aniqlang va shu zamonga oid bitta gap tuzing(Qo'llash)**

Alisher Navoiyning «Xamsa» asarini o'qimoqchiman.

**Javob:**______________________________________________________________

__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
________________________________________________________________________
____________________________________________________________

**19-SAVOL**

**1) Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Rustam yugurib kelib: «Bolalar, bir ajoyib xabar oldim»,- dedi.

**Javob:**__________________________________________________________________

**2)Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Ustozining bu savolidan esankirab qolgan Javohir: «Yangi kitobni o‘qishni boshladim», - dedi.

**Javob:**__________________________________________________________________

**3) Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Rais mahalladoshlarga qarata dedi: «Hammasi biz  kutgandek bo‘ldi».

**Javob:**__________________________________________________________________

**4)Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Eshikdan kiraverishda turgan Malika ayani ko‘rgan Sodiq: «Erta tongda jo‘nab ketaman»,-deya oynavand uyga kirib ketdi.

**Javob:**__________________________________________________________________

**5)Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shuqolip asosida 1 ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

«Kun uzun, tun qisqa,-qo‘lidagi supurgini yerga qo‘ygan Karima yig‘i aralash o‘ziga-o‘zi gapirar edi,- tinimsiz ishlashim kerak».

**Javob:**__________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

**6)Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shuqolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Iskandar xayolchang dedi: «Bir qancha muammolarimni hal qilishim kerak».

**Javob:**________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

**7) Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1 ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

«Inson har bir ishda ehtiyotkor bo‘lishi kerak»,- dedi donishmand.

**Javob:**________________________________________________________________

______________________________________________________________________

__________________________________________________________________________

___________________________________________________________

**8) Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

Bobolarimiz: «Har bir kasb egasi kasbiga bo‘lgan fidoiyligi, mehnatsevarligi bilan hurmatga erishadi»,- deb bejiz aytishmagan.

**Javob:**________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

**9)Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

«Hayotni sevasanmi? Unday bo‘lsa vaqtingni uvol qilma»,- deydi Benjamin Franklin.

**Javob:**________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

**10) Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gap qolipini yozing va shu qolip asosida 1ta gap tuzing. (Qo‘llash)**

«2003-yilda o‘smirlar o‘rtasidagi Jahon chempionatiga borganim – omadim,- deydi Ravshan Ermatov, - shu o‘yinda ko‘p narsa o‘rgandim».

**Javob:**______________________________________________________________

________________________________________________________________________

________________________________________________________________________

________________________________________________________________________

**20-SAVOL**

**1) Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir boyning mol-dunyosi ko‘payib ketibdi. U donishmanddan: “Mol-dunyoyim ko‘payib borayapti, uni qanday kamaytirib, bebaraka bebaraka qilsam bo‘ladi?”- deb so‘rabdi. Donishmand unga: «Nonni tuyaning ustida yegin»,- debdi. Bir kuni boy tuyaning ustida non yeb kelayotganida nonning ushoqlari yerga tushib ketdi. Boy tuyadan tushib: “Nonning ushog‘i ham non. Yerga tushsa uvol bo‘ladi”,- deb ushoqlarni terib olibdi. Boyning bu ishini kuzatib turgan donishmand: «Boy tuya ustida non yesa, uning ushog‘i yerga tushib isrof bolishi kerak edi. Isrof mol-mulkni bebaraka qilib, uning kamayishiga sabab bo‘lar edi. Ammo bu boy non ushog‘ini terib olib isrofga yo‘l qo‘ymadi. Isrofga yo‘l qo‘ymaydigan boyning moli hech qachon kamayib, bebaraka bo‘lmaydi»,- degan ekan. Shu sababli rizq-ro‘zimiz bo‘lgan non va boshqa mahsulotlarni isrof qilishdan ehtiyot bo‘lishimiz lozim.




1. **Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
____________________

2. **Asosiy qahramonni tavsiflash:** Bitta asosiy qahramonni tavsiflang._________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_______________________________________________
_________________________

3. **Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.
__________________________________________

4. **Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
_______________________________________________

**2) Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza)**

Bir yigit Suqrotdan: “Muvaffaqiyat siri nimada”,-deya so‘radi. Suqrot unga ertasi kuni tongda daryo bo‘yiga kelishini, savoliga o‘sha yerda javob berishini aytdi.

Ertasiga ertalab yigit daryo bo‘yiga keldi. Suqrot undan daryoga tushishini so‘radi. Birga daryoga tushdilar. Suv bo‘ynilariga yetganda, kutilmaganda Suqrot yigitning boshini suvga tiqdi. Yigit suvdan chiqishga qanchalik harakat qilmasin, Suqrot kuchli edi. Suqrot yigitni ko‘karib ketgunicha suvda ushlab turdi, keyin suvdan chiqarib oldi. Yigit chuqur nafas oldi. Suqrot so‘radi: «Boshingni suvda tutib turgan vaqtim eng ko‘p nimani xohlading?» Yigit javob berdi: «Havo». Suqrot dedi: «Muvaffaqiyatning siri mana shunda. Qachonki sen muvaffaqiyatni suv tubida havoni xohlaganingchalik xohlasang, shunda unga erishasan. Bundan boshqa siri yo‘q».



1. **Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________
2. **Asosiy qahramonni tavsiflash:**Bitta asosiy qahramonni tavsiflang.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________
3. **Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.
________________________________________________________________________
4. **Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
________________________________________________________

**3) Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Kunlardan bir kun bir yigit o‘z qishlog‘ida yashaydigan donishmanddan so‘rabdi: «Siz umringizda hech xato qilganmisiz?» Donishmand: «Qilganman,-debdi. –Uch marta xazinamni yo‘qotdim. Avval ne mashaqqat bilan to‘plagan boyligimni yo‘qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boylik topdim”,-debdi.  Keyin yana bir do‘stini yo‘qotganini, do‘sti vafot etmaganini, u haqiqiy do‘st emas ekanini, boshiga tashvish tushganda tashlab ketganini, do‘stligiga xiyonat qilganini so‘zlabdi. So‘ng: “Modomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do‘st bo‘laolmaydi, deb o‘zimni yupatdim. Keyin  boshqa chinakam do‘st topdim. Ammo bu orada shunday birxazinamni yo‘qotdimki, buning uchun o‘zimni hech kechira olmayman. Men uni o‘z qo‘lim bilan yo‘qotib qo‘ydim”,-debdi.

Bu so‘zlarni eshitgan bola qiziquvchanlik bilan: “Yana xazina yo‘qotdingizmi?”,-deb so‘rabdi. Shunda donishmand: “Bu bekor o‘tgan kunlarim, bekor o‘tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar qayta tug‘ilganimda edi, o‘sha bekor o‘tgan damlarimni ham foydali ishlarga: o‘qishga, mehnatga sarflagan bo‘lardim…”,-deb javob beribdi.




**1.Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________

**2.Asosiy qahramonni tavsiflash:** Bitta asosiy qahramonni tavsiflang.

______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

**4)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Kunlardan bir kun bir yigit o‘z qishlog‘ida yashaydigan donishmanddan so‘rabdi: «Siz umringizda hech xato qilganmisiz?» Donishmand: «Qilganman,-debdi. -Uch marta xazinamni yo‘qotdim. Avval ne mashaqqat bilan to‘plagan boyligimni yo‘qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boylik topdim”,-debdi. Keyin yana bir do‘stini yo‘qotganini, do‘sti vafot etmaganini, u haqiqiy do‘st emas ekanini, boshiga tashvish tushganda tashlab ketganini, do‘stligiga xiyonat qilganini so‘zlabdi. So‘ng: “Modomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do‘st bo‘la olmaydi, deb o‘zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do‘st topdim. Ammo bu orada shunday bir xazinamni yo‘qotdimki, buning uchun o‘zimni hech kechira olmayman. Men uni o‘z qo‘lim bilan yo‘qotib qo‘ydim”,-debdi.

Bu so‘zlarni eshitgan bola qiziquvchanlik bilan: “Yana xazina yo‘qotdingizmi?”,-deb so‘rabdi. Shunda donishmand: “Bu bekor o‘tgan kunlarim, bekor o‘tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar qayta tug‘ilganimda edi, o‘sha bekor o‘tgan damlarimni ham foydali ishlarga: o‘qishga, mehnatga sarflagan bo‘lardim…”,-deb javob beribdi.




**1.Matnning asosiy g'oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

**2.Asosiy qahramonlarni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

______________________________________________________________________

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

**5)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Badavlat kishining yakka-yu yagona o‘g‘li bo‘lgan ekan. Bola otasining boyligiga ishongani uchun: “Maza qilib yashab qolishim kerak. Otamning puli ko‘p. Menga bir umrga yetadi”,- deb ilm olishga, san'atni o‘rganishga qunt qilmabdi. O‘zining har xil o‘y-xayollaridan o‘zicha xulosalar yasab, shularni farog‘at, saodat deb o‘ylar ekan. Otasining nasihatlariga also quloq solmas, yolg‘ondan otasiga o‘zini saboq olayotganday ko‘rsatar ekan.

Bir kuni otasi unga: “Dunyoning saodati yaxshi do‘st topmoqlikda”,-debdi. U esa yaxshi do‘st deganda nfsning, shaytonning amriga bo‘y sungan odamni tushunarmish. Biroq bufikri bilan o‘ziga bir falokat hozirlaganini bilmas edi.

Kunlarning birida otasi olamdan o‘tibdi. Shuncha mol-davlatning vorisiga aylangan ilm-u hunardan bexabar bu yigit kayf-safoga berilgani uchun o‘sha “yaxshi do‘stlari” bilan otasidan qolgan boylikni yeb bitiribdi. Mol-mulk tugagach, do‘stlari ham tashlab ketibdi. Bolaning shirin joni ming azoblar iskanjasida qolibdi. O‘zini faqirlikning o‘limday og‘ir iztiroblariga mubtalo qilibdi.




1. **Matnning asosiy g'oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

2. **Asosiy qahramonlarni tavsiflash:** Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

3. **Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

4. **Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

**6)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Bir shaharda ikkita odam yashar, biri olim, birisi boy ekan. Olim kambag‘al, boy johilekan. Hamma vaqt boyligi bilan kibrlanganidan o‘zini olimdan ustun deb bilarkan. Boy olimga: “Sening puling, mol-mulking yo‘q, qanday qiymating bor o‘zi. Faqat kitob o‘qiysan, axir bundan foyda chiqmaydi-ku. Yeb-ichishing ham joyida emas, durustroq kiyiming ham yo‘q”, - debdi. Boy bunday hayotdan qanday ma’no borligini, dunyoda boylikdan ham a’loroq narsa yo‘qligini aytibdi. Olim sukut saqlar edi.

Kunlarning birida shaharda katta urush bo‘lib, hamma taraf alg‘ov-dalg‘ov, ostin-ustun bo‘lib ketibdi.Odamlar himoya uchun ko‘chalarda daryoday oqib, safga tizilishib, jangga otlanibdi.Urush esa tugayvermabdi. Haligi mag‘rur boyning puli tamom bo‘lgach, zarra qadri ham, hurmati ham qolmabdi. Birov undan xol so‘ramabdi ham. Qayerga bormasin xor, haqir bo‘libdi. Olim esa qayerga borsa hurmat-izzatta qayerga kirsa eng suyukli mehmonlar qatoridan joy berishar ekan. Ilmi uni e’zozlagandi, johilni esa boyligi xor qildi.




**1.Matnning asosiy g'oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

**2.Asosiy qahramonlarni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

____________________________________________________________________________
____________________________________________________________________________
____________________________________________________________________________
_______________________________________________________

**7)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Bir begunoh yigitni yo‘lda ikki qaroqchi tutib olib, hamma narsasini olib, rosa urishibdi. So‘ng bu ham yetmaganday uni o‘ldirishga qasd qilishibdi. Bechora yigit payt poylab qochib qolibdi. Bir zolim boyning uyiga yetganda yurishga ham holi qolmay: “Yordam bering. Uyingizda panoh topay”,-deb yolvoribdi. Qaroqchilar ham uni ta’qib qilishayotgan ekan. Zolim boyning eshigiga kelganda undan: “Qochib kelayotgan bir yigitni ko‘rmadingmi?”- deb so‘rashibdi. Boy: “Yo‘q, ko‘rmadim”,- deb baqiribdi. Lekin qo‘l harakatlari bilan boshini irg‘ib yigitning ichkarida o‘tirganini imo-ishora bilan tushuntirmoqchi bo‘libdi. Biroq qaroqchilar bu imo-ishoralaridan hech narsa anglamay yo‘llariga ravona bo‘lishibdi.

Qaroqchilar g‘oyib bo‘lgach bechora yigit o‘limdan qutulganiga shukr etib berkingan joyidan chiqib ketayotsa, boy: “Seni o‘limdan qutqarib qoldim, rahmat ham demaysan”,- deb ta’na qilibdi. Yigit: “Qalbing ham, boshing ham, qo‘ling ham, tiling kabi bo‘lsaydi, senga rahmat aytardim”,- deb javob beribdi.



1. **Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________

2. **Asosiy qahramonni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________

3. **Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.
________________________________________________________________________

4. **Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
________________________________________________________

**8)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Bir begunoh yigitni yo‘lda ikki qaroqchi tutib olib, hamma narsasini olib, rosa urishibdi. So‘ng bu ham yetmaganday uni o‘ldirishga qasd qilishibdi. Bechora yigit payt poylab qochib qolibdi. Bir zolim boyning uyiga yetganda yurishga ham holi qolmay: “Yordam bering. Uyingizda panoh topay”,-deb yolvoribdi. Qaroqchilar ham uni ta’qib qilishayotgan ekan. Zolim boyning eshigiga kelganda undan: “Qochib kelayotgan bir yigitni ko‘rmadingmi?”- deb so‘rashibdi. Boy: “Yo‘q, ko‘rmadim”,- deb baqiribdi. Lekin qo‘l harakatlari bilan boshini irg‘ib yigitning ichkarida o‘tirganini imo-ishora bilan tushuntirmoqchi bo‘libdi. Biroq qaroqchilar bu imo-ishoralaridan hech narsa anglamay yo‘llariga ravona bo‘lishibdi.

Qaroqchilar g‘oyib bo‘lgach bechora yigit o‘limdan qutulganiga shukr etib berkingan joyidan chiqib ketayotsa, boy: “Seni o‘limdan qutqarib qoldim, rahmat ham demaysan”,- deb ta’na qilibdi. Yigit: “Qalbing ham, boshing ham, qo‘ling ham, tiling kabi bo‘lsaydi, senga rahmat aytardim”,- deb javob beribdi.




**1.Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________

**2.Asosiy qahramonni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________

______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

________________________________________________________________________

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o'zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o'zlashtirma gap yozing.

______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
________________________________________________________

**9)Quyidagimatnnijadvaldagiyo'nalishchizig'ibo'yichatahlilqiling (Mulohaza).**

Bir yetim bola yo'l chetida turib, sovuq shamolda muzlab qolgan qo'llarini cho`zib, o`tgan-qaytganlardan ehson so'rar edi. Rahmdil bir odam uning yalang oyoqlariga, yirtilib ketgan ko'ylaklariga, shamolda to'zg'igan parishon sochlariga qarab: "Eh bechora bola, qiynalib qolibdi-da",-deya bolaning hovuchiga bir oltin tanga tashlab, yo'lida davom etibdi. Bola avvaliga oddiy chaqa deb o'ylabdi. So'ng uning oltin ekanini ko'rgach hayratga tushibdi. "Bu odam menga adashib tilla tangga berib yubordi, darhol u kishini topib pulini o'ziga qaytarib berishim kerak",- deb, orqasidan yugurib, haligi odamga yetib olibdi. "Amaki, menga adashib chaqa o'rniga tilla tanga berib yuboribsiz, oling",- deb pulni haligi odamga uzatibdi. Rahimdil kishi unga uzoq tikilibdi, ko'zlariga yosh kelibdi: "O'g'lim, shu oltinni ol. Bugun uyingga borib qorningni to'ydir. Senga intiq turganlarni ham to'ydir. Bu oltin tanga sening xulqing uchun mukofot",-debdi.




**1.Matnning asosiy g'oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
_______________________________

**2.Asosiy qahramonlarni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
_______________________________

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

__________________________________________________________________________

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
__________________________________________________

**10)Quyidagi matnni jadvaldagi yo‘nalish chizig‘i bo‘yicha tahlil qiling (Mulohaza).**

Ikki o‘g‘ri bir badavlat odamning uyidan bir arabiy otini o‘g‘irlabdi. Yo‘lda otni talashib: “Bu ot menga, uni o‘g‘irlanishida men ko‘proq hissa qo‘shdim. Demak, u menga nasib qilishi kerak”,-deb bir-birlari bilan urisha boshlabdilar. Shunda bir yo‘lovchi: “Bu ikki odam nega urishyapti bilmadim-u, lekin oti zotdor otga o‘xshaydi. Ular o‘zi bilan o‘zi ovora vaqtda otni olib qochaman”,- deb otga minib, qochiq qolibdi.

Ikki o‘g‘ri otni yo‘lovchi olib qochib ketayotganini ko‘rib uning ortidan yugura boshlashibdi. Ammo ulovi bo‘lmagani uchun yeta olishmabdi. Ikkisi ham ot ustida shamolday tez ketayotgan vaqtini eslab yig‘lab yuborishibdi.



**1.Matnning asosiy g‘oyasi:** Matnning qisqacha mazmun va maqsadi ochib beriladi.

________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
___________________________________

**2.Asosiy qahramonlarni tavsiflash:**Matnda nechta qahramonlar bor? Ularni tavsiflang.

________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
___________________________________

**3.Matnga sarlavha tuzish:** Matn mazmuni asosida matnga sarlavha tuzing.

__________________________________________________________________________

**4.Matn qahramonlarining nutqi asosida o‘zlashtirma gaplar yozish:** Matnda uchragan 2 ta qahramon nutqi asosida 1tadan o‘zlashtirma gap yozing.

________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
________________________________________________________________________________
_________________________________________________________